



YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI - KELAJAGIMIZ VA ISTIQBOLIMIZ POYDEVORI

Mamurova Xusnidaxon Elyorjon qizi

Farg'ona davlat universitetining 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6830691>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 14th July 2022

KEY WORDS

O'zbekiston, Davlat,
yoshlar, siyosat, islohot,
qonun-qoida, qaror,
kamolot, tarbiya,
president, renesans, ilm-
fan, oliy majlis, fidoiyluk.
Xorazmiylar, Beruniylar,
Ibn Sinolar, Ulug'beklar,
Navoiy Zahiriddin
Muhammad Bobur,
Qudratullo Abduraimov,
Dilnoza Xudoyberganova.

ABSTRACT

Ushbu maqolamda yoshlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil eta turib davlat va yoshlarning uzviy bog'liqligini ko'rishimiz, Har bir yo'nalishda yoshlarning bandligini ta'minlash. Yigit va qizlarning har tomonlama kamol topishlari, bilim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratishda. vatanimizning barcha islohotlari haqida bayon qilingan.

Yosh avlod kelajagi hamisha O'zbekiston davlat siyosatining markazida bo'lgan. Bugun ham yurtimizda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, yoshlarning kamoloti va tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi shart-sharoit yaratish uchun barcha sohada keng ko'lamli islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda.

O'zbekiston haqiqiy ma'noda yoshlar mamlakati. Bu yurtda ulg'ayotgan yig'it-qizlarning orzulari va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bisyor. Davlat rahbarining tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi esa ularga bu maqsadlarni amalga oshirishda ko'mak beradi. Prezident Shavkat Mirziyovning: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans

poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", so'zlari yoshlar uchun katta marralar sari yo'l ochdi.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, ularni ajdodlarimizning boy merosi bilan tanishtirish, ona vatanga muhabbat va iftixor tuyg'ularini qaror toptirish maqsadida Jahon iqtisodiyoti va



diplomatiya universiteti o'qituvchilari Qudratullo Abduraimov va Dilnoza Xudoyberganovalar boshchiligida Beshkapa mahallasi yoshlari G'alaba bog'ida joylashgan Shon-sharaf muzeyida bo'lishdi. Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida ularning o'рни beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi.

Yoshlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil eta turib davlat va yoshlarning uzviy bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Har bir yo'nalishda yoshlarning bandligini ta'minlash davom etmoqda. Yigit va qizlarning har tomonlama kamol topishlari, bilim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa ularning kelgusida vatan ravnaqiga hissa qo'shuvchi avlod bo'lib yetishishlarida ahamiyatlidir.

Yoshlar — har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi hisoblanadi. Zero, yangi O'zbekiston yoshlari — kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir. Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani, xususan, Prezident va ijod maktablari tashkil etilayotgani zamirida katta ma'no mujassam. Hozir biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega o'quv binolarida ta'lim olayotgan yoshlarning yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlana olamiz.

Birgina Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi Firdavs

Abduqayumovning IELTS dasturi bo'yicha yuqori ball to'plab, AQSHning Jon Keroll universitetida tahsil olish uchun 96 ming dollarlik grant sohibiga aylangani ham davlatimiz rahbari boshchiligida qisqa vaqtda ta'lim-tarbiya sohasida tanlagan yo'limizning naqadar to'g'ri ekanligini yaqqol isbotlab turibdi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oyani ilgari surgani bejiz emas. Zotan, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta yetamiz".

Shu nuqtayi nazardan bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Murojaatnomada bayon etilgan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun faol ish olib bormoqda. Xususan, ushbu tarixiy nutqdan so'ng, parlament quyi palatasida Murojaatnoma mazmun-mohiyatiga va ahamiyatiga bag'ishlangan bir qator tadbirlar o'tkazildi.

Kuni kecha "Ta'lim va tarbiya – yosh avlod kamolotining poydevori va davlatimiz taraqqiyotining kafolati" mavzusida fraksiyalararo bo'lib o'tgan amaliy muloqotda ham Murojaatnomada belgilab berilgan vazifalar atroflicha muhokama qilindi. Samimiy va ko'tarinki ruhda o'tgan muloqotda Murojaatnomadan o'rin olgan vazifalar bilan birga, 2021-yilga mo'ljallangan Davlat dasturi loyihasiga ta'lim tizimi taraqqiyotiga xizmat qiladigan bir qator takliflar bildirildi. Bu bejiz emas, albatta. Ayonki, Murojaatnomada belgilangan maqsadlarga so'zsiz erishish barchamizdan yakdillik va faollik talab etadi.



Nega desangiz, joylarda aholi bilan uchrashuvlarimiz davomida aksariyat maktablarning binolari o'tgan asrning o'rtalarida qurilgani, o'quv-partalari eski, sinfxonalar yetishmasligiga ko'p bor guvoh bo'lganmiz. Demak, mamlakatni qudratli qiladigan kuch ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekan, bilim va ma'naviyat maskani bo'lgan maktablar sharoitini yaxshilash kechiktirib bo'lmas vazifa hisoblanadi.

Murojaatnomada maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom ettirilishi aytib o'tildi. Tabiiyki, joriy yilning o'zida 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so'mlik mablag' ajratilishi ming-minglab yoshlarning qalbini to'lqinlangani aniq. Bu yo'nalishda boshlagan ishlarni davom ettirish maqsadida 2021-yilni mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili", deb e'lon qilinishi

yoshlarning salohiyatini namoyon etish borasidagi sa'y-harakatlariga yangicha kuch va ilhom bag'ishladi.

Bizning fikrimizcha, sohada davlat-xususiy sherikchiligi va xususiy xizmatlarni jadal rivojlantirish hisobidan bolalar uchun sport, musiqa va san'at maktablari qurilishini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, ingliz tili, informatika, matematika va boshqa talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rgatish sohasida xususiy sektorning ulkan imkoniyatlarini ishga solish qisqa vaqtda albatta, o'z samarasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, agar jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo, ta'lim tizimidan boshlanganini ko'ramiz. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktabdir. Shu jihatdan maktablardagi ta'lim sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo'lishi lozim.